

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish .....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi .....	223



УО'К: 371.132.796.011.2

**YENGIL ATLETIKA MASHG'ULOTLARIDA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH****РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ****DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES IN ATHLETICS****Abdurahmov Xayrullo Xakimjonovich**

Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy tarbiya nazariyası kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada maktab sharoitida tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonida yengil atletika bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarida o'tkazilgan bo'lib, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga oid maxsus mashqlarni aylanma tezlanishlar bilan bog'liq bo'lgan noan'anaviy mashqlar va yangi inovattion metodlardan(uslub) hamda harakatli o'yinlar ta'sirida muntazam qo'llay borish samarali natijaga olib kelishi o'z isbotini topgan.

**Аннотация**

В статье для студентов, занимающихся легкой атлетикой, в ходе тренировочных занятий в школьных условиях проводились специальные упражнения, связанные с развитием их физических качеств, в том числе нетрадиционные упражнения, связанные с вращательными ускорениями и новыми инновационными методами (стилями) и доказано, что регулярное употребление под воздействием экшн-игр приводит к эффективным результатам.

**Abstract**

In the article, for students involved in athletics, during training sessions in school conditions, special exercises were conducted related to the development of their physical qualities, including non-traditional exercises related to rotational accelerations and new innovative methods (styles) and it is proved that regular use under the influence of action games leads to effective results.

**Kalit so'zlar:** Yengil atletikachi, aylanma trenirovka, funksional holatini baholash, o'quv mashg'ulot (trenirovka) jarayoni, ko'r yillik trenirovka, boshlang'ich tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik, an'anaviy usulda, noan'anaviy usulda, umumiy chidamlilik, kuch chaqqonlik, egiluvchanlik, tezkor-kuch.

**Ключевые слова:** Легкоатлет, круговая тренировка, оценка функционального состояния, тренировочный (тренировочный) процесс, многолетняя тренировка, начальная подготовка, общая физическая подготовка, традиционный метод, нетрадиционный метод, общая выносливость, силовая ловкость, гибкость, быстрота.

**Key words:** Athletics, circuit training, otsenka functional status, training (training) process, multi-year training, initial training, general physical training, traditional method, non-traditional method, general performance, strength, flexibility, agility.

**KIRISH**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining strategiyasi ishlab chiqildi. Unda, "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish aholi salomatligini taminlashda muhim omildir" deb baho berilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqсадиди; "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarining sonini oshirish" ko'rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish belgilangan. Ayniqsa president Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 1-apreldagi ommaviy sportni rivojlantirishga bag'ishlangan mahsus yig'ilishida, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ommaviy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 6 milionga yetkazish, 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqiga, Oliy majlis deputatlariga, Senatorlarga murojatida: "Turli yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatish ishlari yo'q"ligi to'g'risida alohida ko'rsatmalar berilda. Mamlakatni 2023-yilgi taraqqiyot strategiyasi dasturida, jismoniy tarbiya va sportga nixoyatda keng o'rın berildi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy adabiyotlarda tahlil shuni ko'rsatadi, yengil atletika turlari bo'yicha aksariyat ishlar sport mashg'ulotini boshqarishning metodologik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, u jismoniy tayyorgartlik, shuningdek, uning texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik bo'limlarini o'z ichiga oladi. Chunki yengil atletikani yugurish turlarining hammasi chidamlilikni namoyon qilishi bilan bog'liqdir. Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu mashqlarning samaradorligi to'g'risidagi masala hozirgacha sohadagi dolzarb bo'lgan vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Yengil atletikaning o'rta masofaga yugurish turi siklik sport turi hisoblanib, harakat amallarining variantli tarkibi bilan ifodalanadi. E'tirof etish joizki, o'rta masofaga yugurish turi respublikamizda ommalashgan sport turlaridan sanaladi. Hozirgi kunda soxa bo'yicha M.Olimov, I.Soliyev, K.Shakirjanova R.Burnashev, N.To'xtabayevlar va boshqalar tomonidan tayyorlangan dissertasiyalar, darslik va nashr etilgan o'quv qo'llanmalar mavjud. Shuningdek, tezislар shaklidagi adabiyotlarda ham ma'lumatlar berilgan. Shu sababli yengil atletikaning o'rta masofaga yugurish turida ilmiy izlanishlarning olib borilishi juda dolzarb hisoblanadi, chunki sport tayyorgarligi ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u o'qtish-o'rgatish, tarbiyalash, organizimni rivojlantirish, sportchinig funksional imkonyatlarini oshirish jarayonlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Yengil atletikaning yugurish turlarida funksional holatini baholash u yoki bu sifatlarning rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi, har qanday harakat sifati esa energiya ta'minoti-aerob va anaerob ish rejimining ishchanlik qobiliyatini shiddat zonalari bilan aloqadarligini rivojlanish darajasi bilan cheklandi. Bugungi kunda o'rta masofaga yuguruvchilarining morfologik, fiziologik ko'rsatkichlari umumiyligi va maxsus tayyorgarlik darajasi bilan birga individuallashtirish tamoyillarini hisobga olgan holda kompleks boholangan va tahlil qilingan tadqiqotlar respublikamizda yetarlicha o'tkazilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Sport amaliyotida bunday yondashuv mashg'ulot jarayonini samarali boshqarishni amalga oshirish imkonini beradi, chunki jismoniy yuklamalarning sportchi organizimiga ta'siri kattaligi va yunalishini bog'lab turuvchi jismoniy tayyorgarligi, texnik ko'rsatkichlarining o'zgarish denamikasi sportchilar organizimining individual moslashish imkoniyatlarini ham o'zida aks ettiradi.

O'quvchi va talabalarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Sh.X.Xankeldiyev, R.S.Salomov, T.S.Ulmonxo'jayev, M.Yu.Yunusova, Y.Ya.Bondarevskiy, kabi olimlarning tadqiqotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligining sustligi aniqlangan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hamma yengil atletikachilar uchun o'quv mashg'ulot (trenirovka) jarayonining asosiy tashkiliy shakli gruppa bo'lib yoki individual 2 soat yoki undan ko'proq davom etadigan o'quv mashg'uloti (darsi) o'tkazishdir. Ozroq davom etadigan mashg'ulotlar ham bo'lishi mumkin. Asosiy mashg'ulotlarni har kuni ko'p kuch kelmaydigan ertalabki trenirovka bilan to'ldirib turish mumkin. Asosiy trenirovka mashg'ulotlarini to'ldiruvchi uy vazifalarini esa kunning boshqa vaqtida bajarish mumkin. Yengil atletikachilar yengil atletik o'quv mashg'uloti darsidan tashqari, kross, basketbol va shunga o'xshash mashg'ulotlar o'tkazadilar. Nihoyat, sport musobaqalari shakllaridan biri hisoblanadi. Mashg'ulotlarining hamma shakllarida quyidagi asosiy qoidalarga riosa qilish kerak: mashg'ulotni asta-sekin boshlab, keyin asosiy ish o'tkaziladi.


Yosh o'quvchilardan yengil atletikachilar tayyorlashda ko'p yillik trenirovka jarayonining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida asosiy maqsadimiz: xar tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish edi.

Yosh yengil atletikachilar sprintchi tezligiga va marafonchi chidamliligiga ega bo'lishi kerak. Zamonaviy sport sportchilardan jismoniy sifatlarning doimiy rivojlanish va xar doim yangi darajaga ko'tarilishni talab qiladi. Shuning uchun tayyorgarlik davrida shug'ullanuvchilarga trenirovka asoslaridan saboq berib borish lozim va amaliyotda nazorat qilish zarur, ya'ni xar bir trenirovka oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar ularni qaysi usul va vositalar yordamida amalga oshirish zarurligi bilan tanishtirib borish kerak.

## Pedagogik tajriba vaqtida nazorat va tajriba guruhlaridagi o'quv-mashg'ulot jarayoni tarkibi

No	Hajm va tarkib	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	Haftalar soni	20	20
2.	Mashg'ulotlar soni	100	97
3.	Sinovlar	20	19
4.	Mashg'ulotlarining umumiy vaqtি	9000 min (150 soat)	8730 min (145.5 soat)
5.	Shundan ananaviy usullar	7650 min 85%	6985 min 80%
6.	Shundan noananaviy usullar	1350 min 15%	1745 min 20%
7.	Umumiy chidamlilik	2700 min 30%	2620 min 30%
8.	Tezkor chidamliligi	1350 min 15%	1310 min 15%
9.	Kuch, epchillik, egiluvchanlik	2250 min 25%	2185 min 25%
10.	Tezlik	1800 min 20%	1745 min 20%
11.	Tezkor-kuchlilik sifatlari:	900 min 10%	870 min 10%
		-----	-----

Tajriba va nazorat guruxi shugullanuvchilarining xtafalar soni, tajriba boshidan tekshirilgan mashgulotlar soni, sinov musobaqalari, mashg'ulotlarning umumiy vaqtি aniqlandi. Nazorat guruxidan ko'ra Tajriba guruxi shugullanuvchilari biz tamonimizdan tavsiya etilgan noananaviy usullardan foydalanildi. 10-12 yoshli o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini



aniqlash va shunga asosan mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirishga erishildi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi vosita va uslublarni to'g'ri tanlanganligi tajribada isbotlandi.

10-12 yoshli o'quvchilarni yosh jixatlarini hisobga olib mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish va shug'ullanuvchilarni vosita va uslublar orqali asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash kutilgan natijasini berdi. Tajribada 10-12 yoshli o'quvchilarni mashg'ulotlarga tayyorlashda ilmiy-uslubiy ko'rsatmalar, mashg'ulotlar shakllari xamda vositalari to'g'ri tanlanganligi amalda isbotlandi.

1-diogramma

2-jadval

**Tajriba va nazorat guruhlarining umumiy jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasini solishtirish**

Tekshirish davrlari	60 m ga yugurish (sek.)	Argamchi da sakrash (minutda marta)	1000 m ga yugurish (min.sek.)	2000 m ga yugurish (min.sek.)	Uzunlikka sakrash (sm.)	Tennis koptogi-ni uloqtirish (m)	Baland turnikda tortilish (marta)
<b>Tajriba guruxi</b>							
I tekshir.	10,34	93,13	5:21,8	11:52,0	287,6	22,70	4,5
II tekshir.	10,04	98,7	5:04,8	11:31,9	301,2	16,30	5,5
III tekshir.	9,72	104,0	4:53,0	11:10,7	325,0	32,81	7,7
<b>Nazorat guruxi</b>							
I tekshir.	10,27	91,7	5:21,4	11:50,0	289,0	23,15	4,7
II tekshir.	10,15	95,3	5:16,4	11:35,4	295,0	25,38	5,1
III tekshir.	9,97	97,6	5:13,5	11:29,2	300,5	26,58	5,5

Yuqoridagi jadval va rasmida tajriba va nazorat guruhlarini mashgulotlari orasidagi farqni yaqqol ko'rish mumkin. Mashg'ulotlar bilan birga o'quvchilar o'rtasida maxsus testlar o'tkazildi. O'tkazilgan testlar natijasi qiyosiy taxlil qilindi. Bunda I va II, III tekshirish taqqoslanib ko'rsatilgan. Tajriba guruhi nazorat guruhiga qaraganda natijalar anchagina o'sganini ko'rsatib turibdi. Tekshirishlar davomida biz tajriba va nazorat guruhi yosh yengil atletikachi bolalarida yana bir testni, ya'ni maxsus jismoniy tayyorgarlikni tekshirib ko'rdik.

Bunda biz 60 m, Arqonda sakrash, 1000 m va 2000 m ga yugurish, Uzunlikga sakrash, tennis koptogini uloqtirish, baland turnikda tortilish testlarini qabul qildik va bu natijalarni ham o'rtacha qiymatini xisoblab jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasini ham aniqladik. 1-jadvaldan ko'rinish turibdik, tajriba guruhi o'quvchilari nazorat guruhi tekshiriluvchilariga nisbatan jismoniy rivojlanish tomonidan xam ko'rsatkichlar tomonidan ham ustun kelishgan.

Tajriba guruhi o'quvchilari noan'anaviy mashgulotlarning ko'p qo'llanilishi va biz tomonimizdan tavsiya etilgan dastur asosida shug'ullanishi o'z natijalarini berdi. 10-12 yoshli o'quvchilarni yosh jixatlarini xisobga olib yengil atletika mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga erishildi.

### XULOSA

1. Yosh yengil atletikachilarini tayyorlash amaliyotida umumiy va mahsus mashqlar ko'nikmasiga o'rgatish samaradorligini oshirish maqsadida muayyan tadqiqotni tashkil qilishda avvalom bor ushbu jarayonlar sifatini tahlil qilish va o'qituvchi – murabbiyning pedagogik tajribasini o'rganish lozim. Olingan natijalar asosida tadqiqotning maqsadi, vazifalari, uslublari va uni tashkil qilish tartibini belgilash muhim ahamiyat kasb etidi.

2. Maktab sharoitida darsdan keyingi yengil atletika to'garak mashg'uloti yengil atletika bilan shug'ullanuvchi bolalar o'rtasida o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida umumiy va mahsus jismoniy mashqlarni o'rgatish jarayoni past sur'atda olib borilishi, shug'ullanuvchilarining o'zlashtirish darajasi qoniqarli emasligi ma'lum bo'ldi.

3. Dastlabki tadqiqotlardan shu narsa kuzatildiki, mashg'ulotlarda qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy umumiy va mahsus jismoniy mashqlar malakali yengil atletikachilar tayyorlash talablariga to'lik javob bermas ekan.

4. Pedagogik tajriba natijalari umumiy va mahsus jismoniy mashqlar ko'nikmalariga o'rgatish va ularni samarali o'zlashtirish takomillashtirilgan umumiy va mahsus jismoniy mashqlarga bog'liq ekan. Aynan shunday toifaga mansub umumiy va mahsus jismoniy mashqlar harakat texnikasini ham uning aniqligini ham jadal sur'atlar bilan shakllantirishga olib kelishi mumkin ekan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Губа В.П., Никитушкин В.Г. Легкая атлетика в школе. - М.: Олимпия пресс, 2006. - 219 с.
2. Джонсон есть Джонсон: 110 метров с/б //Легкая атлетика. - Москва, 2003. № 9 (10). - С. 10.
3. G'aniboev D.I, Soliev R.I, Abdiev A.Sh. Yosh yengil atletikachilarni yengil atletika turlari texnikasiga o'rgatish uslubiyati. – Toshkent. ITA-PRESS, 2014. - 214 b.
4. Шакиржанова К.Т., Солиев И.Р. Барьерлар оша югуришга ўргатиш техникиси ва услубияти. - Т.: ЎзДЖТИ, 2011. - 158 б.